

**«МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В  
ОБЛАСТИ ИНФЕКЦИОННЫХ  
ЗАБОЛЕВАНИЙ: НАУЧНЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ,  
ИННОВАЦИИ В КЛИНИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ  
И ПРОФИЛАКТИКЕ»**

*Международная научно-практическая конференция*

**СБОРНИК ТЕЗИСОВ**

**17 – 18 апреля, 2026 года**





ISBN 978-991076658-9



9

789910

766589



**“YUQUMLI KASALLIKLAR SOHASIDA XALQARO  
HAMKORLIK: ILMIY YUTUQLAR, KLINIK AMALIYOT VA  
PROFILAKTIKADA INNOVATSIYALAR”  
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
2026-yil 17–18-aprel**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ: «МЕЖДУНАРОДНОЕ  
СОТРУДНИЧЕСТВО В ОБЛАСТИ ИНФЕКЦИОННЫХ  
ЗАБОЛЕВАНИЙ: НАУЧНЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ,  
ИННОВАЦИИ В КЛИНИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ И  
ПРОФИЛАКТИКЕ»  
17 – 18 апреля 2026 года**

**СБОРНИК ТЕЗИСОВ**

**Издательство “КАМОЛОТ”  
Бухара - 2026**

# BOLALARDA DISMETABOLIK NEFROPATIYA RIVOJLANISHIDA LITOGEN AMINOKISLOTALARNING BIOKIMYOVIY KO'RSATKICHLARI VA ULARNING DIAGNOSTIK QIYMATI

Tursunbayev A.K., Karimova N.A., Mirxayotova N.A.  
*Toshkent Davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston.*

**Dolzarbligi.** So'nggi yillarda bolalar orasida buyrak va siydik tizimi kasalliklarining tarqalishi ortib borayotgani zamonaviy pediatriyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dismetabolik nefropatiyalar bolalik davridayoq shakllanib, keyinchalik interstitsial nefrit, urolitiaz va surunkali buyrak yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin bo'lgan patologik holat sifatida alohida e'tibor talab qiladi. Ko'pgina tadqiqotlar urolitiazning "yosharishi", ya'ni kasallikning erta yoshlardayoq uchray boshlayotganini ko'rsatmoqda, bu esa metabolik buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash zarurligini yanada oshiradi.

Dismetabolik nefropatiyaning asosiy patogenetik mexanizmlaridan biri siydikning litogen moddalar, jumladan tsistin, arginin va lizin kabi aminokislotalar bilan ortiqcha to'yinishi hisoblanadi. Ushbu moddalarning yuqori kontsentratsiyasi siydikda kristallanish

jarayonlarini kuchaytiradi, bu esa tubulointerstitsial to'qimalar shikastlanishi va tosh hosil bo'lishiga zamin yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, siydikda litogen aminokislotalar miqdorini aniqlash dismetabolik nefropatiyani erta tashxislash, xavf guruhlarini shakllantirish va profilaktik chora-tadbirlarni o'z vaqtida boshlash uchun muhim diagnostik mezon hisoblanadi. Bolalarda ushbu ko'rsatkichlarning yoshga xos me'yoriy chegaralarini belgilash esa klinik amaliyotda ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

**Tadqiqot maqsadi.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli yoshdagi bolalarda siydikdagi tsistin, arginin va lizin aminokislotalarining me'yoriy chegaralarini aniqlash hamda dismetabolik nefropatiya bilan og'rikan bemorlarda ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishini baholash.

**Materiallar va usullar.** Tadqiqotga 1 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 117 nafar dismetabolik nefropatiya bilan og'rikan bola va nazorat sifatida 137 nafar sog'lom bola jalb etildi. Barcha ishtirokchilarda umumiy klinik qon va siydik tahlillari, shuningdek siydikning kundalik va ertalabki qismlarida biokimyoviy tekshiruvlar o'tkazildi. Tsistin, arginin va lizin kontsentratsiyasi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida aniqlandi. Natijalar statistik dasturlar yordamida qayta ishlandi.

**Natijalar.** Sog'lom bolalarda tsistin, arginin va lizinning kundalik siydik bilan chiqarilishi yoshga bog'liq ravishda ortib borishi aniqlandi. Jinsiy farqlar sezilarli emasligi tufayli ko'rsatkichlar yosh guruhlariga bo'yicha umumlashtirildi. Siydikning ertalabki qismida kreatining nisbatan hisoblangan aminokislotalar nisbati esa yosh ortishi bilan pasayib bordi.

Dismetabolik nefropatiya bilan og'rikan bolalarda tsistin, arginin va lizinning ham kundalik, ham ertalabki siydikdagi miqdori nazorat guruhiga nisbatan ishonchli ravishda yuqori bo'ldi ( $p < 0,001$ ). Bu holat kasallik patogenezida siydikning litogen moddalar bilan to'yinishining muhim o'rni borligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Bolalarda tsistin, arginin va lizinning siydik orqali chiqarilishi yoshga bog'liq ravishda o'zgaradi va jinsga bog'liq emas. Dismetabolik nefropatiyada mazkur aminokislotalarning yuqori darajada chiqarilishi kasallikning erta tashxisi uchun ishonchli biokimyoviy marker sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu sababli xavf guruhidagi bolalarda siydikda litogen aminokislotalarni aniqlash urolitiaz va metabolik nefropatiyaning oldini olishda muhim diagnostik ahamiyatga ega.